

MIGRATSIYA NIMAGA KUCHAYMOQDA?**Normo'minov Rustam Hamza o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro huquq va inson huquqlari” yo’nalishi
magistratura talabasi

Email: rustamnormuminov544@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174612>

Dunyoda migratsiya jarayoni nafaqat yirik davlatlar, balki butun dunyo miqyosida kuchayib bormoqda. Bu jarayon kuchayishiga bir qancha omillar ta’sir ko’rsatmoqda. Bular Iqtisodiy globalizatsiya, siyosiy beqarorlik, ekologik o’zgarishlar, demografik o’zgarishlar, hamda migrantsion siyosatlarning tubdan o’zgarishi bularning barchasi migrantsiyaning kuchayishiga sabab bo’lib kelmoqda. Shu bilan birga, pandemiyalar va boshqa global xavf-xatarlar ham migratsiya jarayonini yangi shakllarda kuchaytirgan. Migratsiya kuchayishiga quyidagi omillar sabab bo’lmoqda:

Birinchidan: Iqtisodiy globalizatsiya va ish imkoniyatlari: Global iqtisodiy tizim va bozorlarning integratsiyasi natijasida, odamlar ko’proq ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish markazlariga, ya’ni iqtisodiy jihatdan rivojlangan yoki kuchliroq bozorlar mavjud mamlakatlarga ko’chishga moyil bo’lishadi. Davlatlarda maoshlar turlicha bo’lib Qaysidir davlatdagi maoshning balandligi ushbu davlatga bo’lgan qiziqishlarni yanada oshirishi va davlatga bo’lgan talabni oshiradi natijada davlat o’z iqtisodiyotini saqlab qolish uchun migrantlarga nisbatan turli xil cheklovlarini joriy qilishi mumkin.

Ikkinchidan: Ishsizlik va past maoshlar: Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy inqirozlar, yuqori ish vaqt va kam maoshlar odamlarni yuqori farovonlikka ega davlatlarga migratsiya qilishga majbur qiladi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan qoloq yoki qashshoq hududlarda yashovchi aholi uchun yaqqol ko’rinadi.

Uchinchidan: Siyosiy beqarorlik va urushlar: Siyosiy repressiyalar va ta’qiblar: Bir qator davlatlarda siyosiy erkinliklar, inson huquqlari buzilishlari va hukumatlarning diktatura usullaridan foydalanishi migrantsiyaning kuchayishiga sabab bo’lmoqda. Siyosiy ta’qiblar, etnik va diniy ozchiliklarning ta’qib qilinishi, urushlar va ijtimoiy beqarorlik odamlarni boshqa mamlakatlarga ko’chishga undaydi. Misol uchun, Suriyadagi fuqarolar urushi va boshqa qator ijtimoiy ziddiyatlar odamlarning katta oqimini keltirib chiqardi.

To’rtinchidan: Qochqinlar va boshpana izlovchilar sonining ortishi: bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan urushlar natijasida qochqinlar soni oshib bormoqda. 2010-yildan boshlab,

dunyoning ko'plab mamlakatlarida boshlangan urushlar, etnik va diniy nizolar natijasida millionlab odamlar boshpvana izlab boshqa mamlakatlarga ko'chishmoqda.

Beshinchidan: Ekologik o'zgarishlar va iqlim inqirozi:Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar: Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar, jumladan qurg'oqchilik, toshqinlar, silovlar, o'rmon yong'inlari va dengiz sathining ko'tarilishi ko'plab odamlarni o'z uylaridan ko'chirishga majbur qilmoqda. Iqlim migratsiyasi, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga tayangan va tabiiy resurslar yetishmovchiligi kuzatilayotgan hududlarda kuchaymoqda.

Oltinchidan: Demografik o'zgarishlar:Aholining ortishi va urbanizatsiya Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining tez o'sishi, shaharlarga ko'chish, yirik urbanizatsiya jarayonlari va resurslar taqsimoti bilan bog'liq muammolar migratsiyani kuchaytiradi. Bu jarayonlar ko'pincha qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, bu esa ko'proq odamlarni iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarni izlab boshqa hududlarga ko'chishga undaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak migratsiya jarayonining kuchayishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatmoqda. Migratsyaning kelib chiqishiga iqlim o'zgarishi bilan birgalikda inson faktori ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.Hisob-kitooblarga ko'ra,2023-yilda 38 ta davlatga 6,5 million odam ko'chib o'tgan va 2022-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich 10 foizga ko'pligi qayd etilgan. Globalizatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va transportning rivojlanishi, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy omillar migratsiya jarayonini yanada murakkab va tezkor qilib bormoqda. Kelajakda, migratsiya davom etishi, ayrim hududlarda esa yanada kuchayishi kutilmoqda va migratsiyani kamaytirish uchun davlatlar o'z iqtisodiyotiga jiddiy ahamiyat qaratishi va atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishi yaqin kelajakda migratsyaning kamayishiga katta hissa qo'shgan bo'lar edi.